

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ETHYL ALCOHOL, ALCOHOLIC BEVERAGES AND TOBACCO PRODUCTS ILLEGAL TRANSPORTATION ACROSS THE CUSTOMS BORDER

Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li

Researcher at the Law Enforcement Academy

E-mail: beknosirovliv@gmail.com

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal foundations of offenses related to the illegal transportation of ethyl alcohol, alcoholic beverages, and tobacco products across the customs border. The study also examines the causes of such violations, their socio-economic risks, and the legal norms regulating liability for these offenses.

Keywords: Customs law; Crimes related to violation of customs legislation; Administrative and criminal liability; Ethyl alcohol; Alcoholic products; Tobacco products.

ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH

Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy ravishda olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklar sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy xavfiligi va qonunchilik normalari keng qamrab olingan.

Kalit so'zlar: Bojxona huquqi, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, ma'muriy va jinoiy javobgarlik, etil spirti, alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N42>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijasida mamlakatimizda xalqaro savdo hajmi sezilarli darajada oshib, iqtisodiy rivojlanish yuqori sur'atlarda amalga oshmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat milliy ishlab chiqarish hajmining ortishiga, eksport-import operatsiyalarining kengayishiga, balki davlat byudjeti daromadlarining ko'payishiga ham xizmat qilmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorlikning ortishi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning kengayishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bunday sharoitda bojxona organlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bojxona organlari davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, milliy bozorni noqonuniy tovarlardan himoya qilish, bojxona to'lovlari orqali davlat byudjetini shakllantirish hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish jarayonida muhim vazifalarni bajaradi. Shuningdek, bojxona organlari xalqaro savdo munosabatlarida qonunchilik talablariga rioya etilishini

nazorat qilish, kontrabanda va boshqa bojxona qonunbuzarliklarining oldini olish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, transport va logistika tizimlarining rivojlanishi hamda xalqaro savdo hajmining ortib borishi ayrim turdagi huquqbuzarliklar va noqonuniy iqtisodiy faoliyat shakllarining yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ayrim tovarlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish, bojxona nazoratidan yashirish, qalbaki hujjatlardan foydalanish yoki bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash holatlari amaliyotda uchrab turadi. [1]

Bojxona nazorati masalalarining dolzarbligi ayniqsa etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur tovarlar iqtisodiy jihatdan yuqori qiymatga ega bo'lib, ularning noqonuniy aylanmasi davlat byudjetiga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, bunday mahsulotlarning noqonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilishi milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda bozordagi raqobat muhitini buzishi mumkin. [2]

Shuningdek, sifati kafolatlanmagan hamda sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy ravishda muomalaga kiritilishi fuqarolarning sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni o'rganish hamda ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. [3]

Asosiy qism. Globallashuv jarayonlari, transport va logistika tizimlarining rivojlanishi hamda savdo hajmining keskin oshishi bojxona sohasida yangi turdagi huquqbuzarliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini hamda taqiqlangan yoki cheklangan boshqa tovarlarning noqonuniy aylanmasi amaliyotda keng uchramoqda. [4].

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular aksariyat hollarda katta moddiy qiymatga ega bo'lgan tovarlar bilan bevosita bog'liq. Etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari aynan shunday tovarlar sirasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan, bojxona qonunchiligi, huquqbuzarlik va uning oldini olish mexanizmlari, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik masalalari mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolar farovonligini oshirish borasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227¹⁹-moddasida hamda Jinoyat kodeksining 182-moddasida javobgarlik belgilangan. [5]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektini davlat tomonidan o'rnatilgan bojxona faoliyati tartibi, xususan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish, bojxona nazoratini amalga oshirish hamda bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. [6]

Xalqaro tajribada ham bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar, ayniqsa alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanishi davlat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholanadi. **World Customs Organization** ekspertlarining ta’kidlashicha, yuqori aksiz stavkalariga ega bo’lgan mahsulotlar, xususan etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ko’pincha noqonuniy savdo va kontrabanda predmetiga aylanadi. Bunday holatlar davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga hamda iste’molchilarning sog’lig’iga xavf tug’diruvchi sifatsiz mahsulotlarning tarqalishiga olib keladi. Shu sababli ko’plab davlatlarda bojxona nazoratini kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bojxona qonunbuzarliklariga qarshi kurashning muhim yo’nalishlari sifatida qaraladi. [7]

Xalqaro tadqiqotlarda alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi global iqtisodiyot uchun muhim muammolardan biri sifatida ko’rib chiqiladi. **Organisation for Economic Co-operation and Development** ma’lumotlariga ko’ra, aksiz solig’i yuqori bo’lgan mahsulotlar ko’pincha noqonuniy savdo va kontrabanda predmetiga aylanadi. Bunday holatlar davlat byudjetiga sezilarli zarar yetkazibgina qolmay, balki noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga ham sabab bo’ladi. Shu bois ko’plab davlatlar bojxona nazoratini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni qo’llash hamda risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga intilmoqda. [8]

Shuningdek, Yevropa mamlakatlari tajribasida ham tamaki va alkogol mahsulotlarining noqonuniy olib o’tilishi iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi qayd etiladi. **European Commission** hisobotlarida ta’kidlanishicha, noqonuniy tamaki mahsulotlari savdosi davlatlar byudjetiga katta miqdorda zarar yetkazadi hamda sog’liq uchun xavfli, sifatsiz mahsulotlarning tarqalishiga olib keladi. Shu sababli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bojxona nazoratini kuchaytirish, mahsulotlarni markirovka qilish tizimini joriy etish va davlatlararo axborot almashinuvini rivojlantirish kontrabandaga qarshi kurashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. [9]

2024 yilda *World Economics & Finance Bulletin* jurnalida chop etilgan **“Smuggling of tobacco products, its impact on the economy and public health”** nomli maqola muallifi, ilmiy tadqiqotchi va mutaxassis Boykabilov Bahodir Mustafayevichning ta’kidlashicha “Tamaki mahsulotlarini smuggling (noqonuniy olib o’tish) — bu nafaqat davlat byudjeti uchun muhim yo’qotishlarga olib keladigan iqtisodiy muammo bo’libgina qolmasdan, balki aholining, ayniqsa yoshlarning sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatadi.” [10]

Jahon Sog’liqni Saqlash Tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra, tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi global bozorning taxminan **10–11,6%** ini tashkil etadi va bu holat davlatlar uchun yillik **40–50 milliard AQSh dollari miqdorida soliq yo’qotishiga** sabab bo’lmoqda. Mahalliy statistik ma’lumotlarga ko’ra, O’zbekiston bozorida tamaki mahsulotlarining noqonuniy ulushi **12,4%** ga yetgan hamda davlat byudjeti **390,6 milliard so’m** soliq tushumidan mahrum bo’lgan. [11]

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, bojxona sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar, xususan etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o’tish bilan bog’liq jinoyatlar davlatning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday huquqbuzarliklar davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga hamda

sifatsiz mahsulotlarning noqonuniy aylanmasi orqali fuqarolar sog'lig'iga xavf tug'dirishiga olib keladi.

Shu sababli bojxona qonunchiligini takomillashtirish, bojxona nazoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida kuchaytirish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish orqali kontrabanda va bojxona sohasidagi boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Taklif va tavsiyalar. **1.** Alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy aylanuvini oldini olish maqsadida markirovkalash hamda raqamli kuzatuv tizimini joriy qilish juda yaxshi samara bergan bo'lardi. World Health Organization tavsiyalariga ko'ra, tamaki mahsulotlari uchun "track and trace" (kuzatish va nazorat qilish) tizimi kontrabanda va noqonuniy savdoni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur tizim orqali mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan harakatini nazorat qilish mumkinligi qayd etilgan.

2. World Customs Organization tajribasida davlatlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi kontrabanda holatlarini aniqlash va oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan. Shu sababli, Bojxona organlari o'rtasida xalqaro axborot almashinuvi tizimini kuchaytirish, xalqaro elektron ma'lumot almashish mexanizmlarini rivojlantirish taklif etiladi.

3. Ayrim davlatlar tajribasida (Yevropa mamlakatlari, AQSh) aksiz solig'i yuqori bo'lgan mahsulotlarni noqonuniy olib o'tganlik uchun moliyaviy jarimalar va musodara choralari kuchaytirish amaliyoti qo'llaniladi. Shu kabi mexanizmlarni milliy qonunchilikda joriy etish orqali bojxona qonunchiligida javobgarlik choralari takomillashtirish taklif etiladi. Buning natijasida bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish samaradorligida ancha o'sishgan erishilgan bo'lar edi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. World Customs Organization. *Illicit Trade Report*. – Brussels, 2023.
2. World Health Organization. *WHO Report on the Global Tobacco Epidemic*. – Geneva, 2021.
3. European Commission. *Stepping up the fight against cigarette smuggling and other forms of illicit trade in tobacco products*. – Brussels, 2013.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
7. World Customs Organization. *Illicit Trade Report*. – Brussels, 2023.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Illicit Trade: Converging Criminal Networks*. – Paris, 2016.
9. European Commission. *Report on the implementation of the Tobacco Products Directive (2014/40/EU)*. – Brussels: European Commission, 2021.
10. Boykabilov B.M. (2024). *Smuggling of tobacco products, its impact on the economy and public health*. *World Economics & Finance Bulletin (WEFB)*, Vol. 30, pp. 129–137,
11. World Health Organization. *WHO Report on the Global Tobacco Epidemic*. – Geneva: WHO, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).